

ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA

Xoshimova Dilnoza

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat
salomatligi tibbiyot texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jarrohlik fanining kelib chiqishi rivojlanishi aseptika va antiseptika vositalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aseptika, mikrob, infeksiya, dezinfeksiya, ratsion, gigienik, ekzogen.

O'tgan asrning o'rtalarida eng yengil operatsiyadan keyin ham yaralar o'rni yiringlab, operatsiya qilingan bemorlarning 80%i hayotdan ko'z yumgan. Jarrohlar infeksiya to'g'risida hech narsa bilishmagan, ularni o'zlarining harakatlari, qilgan ishlari bilan ko'pincha yarani zararlantirishgan va natijada bu holat o'limga olib kelgan.

Jarrohlik – jarrohlik fani qadim zamonlardan rivojlanib kelayotgan fan bo'lib, inson organizmida sodir bo'ladigan potologik o'zgarishlarni jarrohlik yo'li bilan kesish, to'qimalarni qirqib olib tashlash, organlarni ko'chirib o'tkazish kabi amaliyotlarni bajaradi. Jarrohlikning asosini aseptika tashkil qiladi.

Aseptika deb jarohatga infektsiya tushmasligi uchun ko'rildigan chora-tadbirlar sistemasiga aytildi. Aseptika deganda jarrohlik uchun ishlatiladigan asbob-anjomlar turli xil matoxlar, infeksiyalarni batamom yo'q qilishi yoki serilizatsiya qilish tushuniladi. Aseptika bir necha turlarga bo'linadi:

Qaynatish.

Yuqori bosim ostida bug' yordamida sterilizatsiyalash.

Yuqori temperaturada quruq sterilizatsiya qilish.

Ximiyaviy sterilizatsiya qilish.

Yondirish orqali sterilizatsiya qilish.

Qaynatish usuli bilan shpritslar, jarohat kengaytirgichlar, pentsitlar sterilizatsiya qilinadi.

Bug' yordamida esa holatlar, oqliklar, choyshablar va niqoblar sterilizatsiya qilinadi.

Ximiyaviy usul bilan esa o'tkir tig'li asboblar (qaychilar, ignalar) rezinka qo'lqoplar, tikish uchun ishlatiladigan iplar sterilizatsiya qilinadi.

Paqirlar hamda tog'oralar yondirish orqali sterilizatsiya qilinadi.

Quruq issiqlik bilan yuqori temperaturaga chidamli yonmaydigan issiqliga bardoshli jismlarni shishalarni, metall yoki farforni sterilizatsiya qilish mumkin.

Jaroh qo'llari Spasokukotskiy-Kochergin usuli bilan oqar suvdasovun hamda shotka yordamida yuviladi. Qo'llar barmoq uchidan tirsak bo'g'imigacha 3 minut davomida yuviladi. Birinchi shotka tashlanib, ikkinchi shotka yordamida qo'llar barmoq qismidan tirsakning o'rta uch qismigacha 3 minut davomida yuviladi. So'ng qo'llar sochiqqa artilib, 5% yod eritmasi singdirilgan salfetkalar yordamida tirnoqlar,

barmoq va kaft burmalari artiladi. 90% spirt eritmasi bilan barmoq uchlaridan bilakning uch qismigacha artiladi. Jarroh stiril halat kiyib, qo'llariga rezina qo'lqop kiyiladi. Rezina qo'lqop ham yuvilib so'ogra, jarroh qo'liga kiygiziladi. Mana shundagina jarroh qo'li operatsiyaga tayyor bo'ladi.

Aseptika

Aseptika fizik omillar, kimyoviy preparatlar, biologik usullarni qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tashkiliy tadbirlar bo'lib, yarasiga mikroblar tushushining oldini olish, ya'ni mikrobsiz ishslash demakdir.

Aseptikaning asosiy qonuni yaraga tegadigan har bir narsa bakteriyalardan xoli bo'lishi, ya'ni sterillangan bo'lishi kerak. Buni hayotga tadbiq etish uchun yaraga mikroblar tushushi mumkin bo'lgan manbalarni yaxshi bilish kerak. Bu manbalar ikki xil bo'ladi: ekzogen va endogen.

Ekzogen infeksiya-yaraga bemor atrofidagi tashqi muhitdan havo (havo infektsiyasi), so'lak va boshqa suyuqliklar (tomchi infektsiyasi) tarqalishidan, yarada qoldirgan jismlardan (ip, drenaj va boshqalar) tushadigan infektsiyalar ichak, nafas yo'li va boshqalardan o'tadi. Endogen infektsiya yaraga to'g'ridan-to'g'ri yoki limfa yoki qon tomirlar orqali tushadi. Aseptika sharoitini yaratish uchun operatsion blokda xonalar (zonallashtirilgan) alohida-alohida bir-biridan ajratilgan holda bo'li-shi shart. Bunda xonalar bir necha guruhlarga bo'linadi. Masalan, qattiq rejimli birinchi xona operatsiya xonasi hisoblanadi. Ikkinchchi xona operatsiyadan oldingi xona hisoblanadi. Uchinchi xona qon saqlaydigan, operatsiyaga kerakli apparatlar o'rnatilgan xonadir. To'rtinchchi xona esa ko'makchi xonadir. Tozzalik va intizom aseptikaning asosidir. Kiyimlar (steril, xalat, qo'lqoplar) tartibga solinib, oyoqqa baxilla kiyib, og'iz va burunga to'rt qavatli doka tutiladi, so'ng operatsiya xonasiga kiriladi. Operatsiya xonasining havosini dezinfektsiya qilish uchun bakteriyalarga qarshi ul'trabinafsha lampalari ishlatiladi. Qonunga ko'ra, operatsiya va muolaja bilan shug'ullanuvchi barcha xodimlar dispanser nazoratida turadilar, har 6 oyda bir marta tibbiyot ko'rigidan o'tadilar.

Qo'lni zararlantirish

Spassokkuotskiy-Kochergin usuli. Bu usulga binoan, qo'l 10 minut davomida ikkita cho'tka bilan 5 minutdan sovunlab yuviladi. Sovuni ketgach, 0.5% li nashadil spirti eritmasi solingan tosda qayta yuviladi va qo'l steril salfetka bilan artiladi hamda 70%li etil spirti eritmasi bilan tozalanadi, tirnoq va panjalar 3%li yod bilan artiladi.

Operatsiya maydoni ikki bosqichda tozalanadi

- 1-bosqich. a) gigienik vanna yoki dush (agar to'g'ri kelsa);
b) o'rinni va kiyimni almashtirish;
v) operatsiyadan oldin jun va tuklarni qirish.

2-bosqich. Operatsiya maydoniga ikki marta 5% li yodning spirtli eritmasini surtish. Operatsiya tugagach, yara chetlarini yod bilan artish. Yosh bolalarga yod o'rniga ko'k briliantining 1% li spirt eritmasi bilan artiladi.

Antiseptika infektsiya (mikrob)ning yaraga tushishiga va uning rivojlanishiga qarshi o'tkaziladigan kompleks kurash va oldini olish usullarini qo'llashdir. Antiseptika mexanik fizik, ximik, biologik aralash turlaridan iborat:

a) kimyoviy antiseptika antiseptik, dezinfektsiyalovchi va kimyoterapevtik preparatlar guruqlariga bo'linadi. Shu maqsadda xloram eritmasi bilan yiringli yarani tozalashda 0.5-1% li, metalmas asboblar uchun 0.5% li, asboblar va xonani tozalash uchun 3% li eritma ishlataladi. Yodning 5%li spirtdagi eritmasi, lyugolъ, spirt, vodorod peroksid 3% li, kaliy permanganat eritmasi, kseroform 3-10% (maz) surtma, poroshoklar va hokazolar ishlataladi;

b) mexanik antiseptika yarani antiseptik eritmalar bilan yuvish, yot jismlarni olib tashlash, yashash qobiliyatini yo'qotgan to'qimalarni kesib tashlashdan iborat.

v) fizik antiseptika yaralarda mikrobnинг rivojlanishiga yo'l qo'ymaydigan fizik usullar bo'lib, ochiq va yopiq drenajlar hamda so'rovchi vaakumlardan foydalanishdir.

g) biologik antiseptika mikroblarni o'ldirish orqali inson organizmining immunobiologik holatini oshirishni ta'minlash maqsadini ko'zlaydi.

Biologik antiseptik moddalar qatoriga antibiotiklar, enzimalar, zardoblar kiradi. Antibiotiklarga olitetrin, streptimitsin, tetrotsiklin, ferment preparatlariga trepsin, ximotrepsin, ximopsin, zardob preparatlariga esa antitoksinlar va anatoksinlar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.V.Petrovskiy, E.I.Chazov. "Gemostazning dolzarb muammolari". Moskva, 2010 yil.
2. "Jarrohlik kasalliklari bo'yicha amaliy qo'llanma". Minsk, 2009 yil.
3. V. Shmitt, V. Xartich. "Umumiy jarrohlik". Moskva, 2012 yil.
4. Shaharlarda travmatologiyani tashkil etishning asosiy masalalari. Moskva, 2014 yil.